

## **RUHIY HOLATNI IFODALASHDA IBORALARNING O'RNI**

*Umarova Shoira Absalomovna,*

*O'zbekiston davlat xoreografiya*

*akademiyasi matbuot kotibi*

**Annotatsiya:** mazkur maqolada badiiy matnda qahramonlarning ichki kechinmalari, psixologik holati va intellektual-empirik faoliyatini ifodalashda frazeologik birliklarning tutgan o'rni va lingvopoetik imkoniyatlari tadqiq etilgan. Yozuvchi Shahodat Isaxonovaning tarixiy romanlarida personajlar ruhiy olamining nozik qirralari, ularning nutqiy voqelanishi hamda asarning badiiy estetik ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan iboralar tahlilga tortilgan. Iboralarning qahramonlar ongidagi hadixsirash, bezovtalik, tashvish va ikkilanish kabi ichki psixologik jarayonlarni kitobxon ko'z o'ngida qabariq va yorqin gavalantirishdagi semantik ko'chish mexanizmlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *psixologik holat, ruhiy kechinma, Shahodat Isaxonova, tarixiy roman, ibora, semantik ko'chish, badiiy estetik, kontekstual ma'no, lingvopoetika.*

Yozuvchilar psixologik holatning *fikrlash, xotira, his-tuyg'u, sezgi* kabi ilmiy kategoriyalaridan foydalangan holda har xil tasvir usullari orqali uning badiiy talqinini shakllantiradilar. Iste'dodli yozuvchi Shahodat Isaxonova o'z tarixiy romanlarida personajlarning ruhiy kechinmalarini turli rakurslarda tasvirlar ekan, inson ruhiy olamining nozik qirralarini sinchkovlik bilan psixologik tahlil qiladi. Muayyan ruhiy vaziyatga mos nutqiy ifodalarni to'g'ri tanlay bilishi esa asarlari jozibadorligi va emotsional-ekspressiv ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Insonning psixologik holati holat ifodalovchi *fe'llar, iboralar, kengaygan birikmalar, undov so'zlar* va boshqa til birliklari orqali ifodalanishi mumkin. Shahodat Isaxonova asarlarida ana shunday quyuq bo'yoqdor tasviriy ifodalar samarali qo'llangan. Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, Sh.Isaxonovaning tarixiy

romanlarida ruhiy holat fe'llari va uning ravishdosh, sifatdosh shakllari shuningdek, sifatlar va iboralar muallif nutqida, ya'ni personajlar xarakteri va ruhiy holatini tavsiflovchi yoki bir personajning boshqa bir personaj tavsifini keltirgan o'rinlarda nisbatan ko'proq qo'llanadi.

Voqelikni qisqa va lo'nda, obrazli va ekspressiv bo'yoqdor holatda ifodalash, uni kitobxon ko'z o'ngida aniq va to'la gavdalantirishda frazeologik iboralarning o'rni, ahamiyati beqiyosdir. B.Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, "Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir."<sup>1</sup> Shuning uchun ham badiiy matnning ta'sirchanligini oshiruvchi yetakchi vositalardan biri hisoblanadi.

O'zbek tili frazeologizmlarning holatni o'zbekona ruhiyatga xos ifodalashi, ongimizdagi mavjud etnolingvistik tushunchalar qoliplariga asoslanishi ularning milliy-madaniy o'ziga xosligini ta'minlaydi. Ularning shakllanishida olamning milliy tasviri unsurlari – mahalliy geografik va iqlimiy muhit, milliy-diniy qadriyatlar, odob-axloq tushunchalari, yashash va ishlash shart-sharoitlari, urf-odatlar kabi qator omillar muhim rol o'ynaydi. Tabiiyki, muayyan til birliklarini qo'llashda ana shu omillar inson ongida «harakatlanadi» va tafakkur reaksiyasi orqali axborot uzatiladi va qabul qilinadi.

*Irisqulibiy "hech narsadan xabarim yo'q" deganday bosh chayqadi. Yer ostida ilon qimirlasa biladigan Jumabiy qaytoqi ham yelka qisgach, shayxulislomning **patagiga qurt tushdi**. (Sh.Isaxonova, "Nodirai davron")*

**Patak** – oyoq kiyimi ichiga qalin va yumshoq matodan qirqib solinadigan to'shama. **Patagiga qurt tushdi** ayn. **paytavasiga qurt tushdi** iboralari *bezovta bo'lib, tashvishlanib, yelib-yugurib qoldi* (O'TIL, 3-jild, 204-, 236-b.) degan ma'noni anglatadi.

Yuqorida keltirilgan parchadagi **patagiga qurt tushdi** iborasi Irisqulibiyning nochor vaziyatga tushib qolgan holatdagi "hadiksirashi" kitobxon ko'z o'ngida yorqin va qabariq holda namoyon bo'ladiki, ortiqcha izohga hojat qolmaydi.

<sup>1</sup> Yo'ldoshev B. B. Frazeologik uslubiyati asoslari. – Samarqand, 1999. – B. 6.

<https://scientific-jl.com/>

Bunda inson ongida iboraning o'z ma'nosi va ko'chma ma'nosi orasidagi semantik bog'lanish jarayoni kechadi.

*Abusaid mirzo yalt etib validasiga qaradi. Qovoqlarini uyganicha, nimadir deyishga chog'landi-yu, lekin indamadi. U chindan ham Robiya Sultonni yoqtirib qolgan, lekin bu haqda hatto validasiga ham og'iz ochishga **yuragi betlamasdi**. (Sh.Isaxonova, "Gavharshodbegim")*

*– O'lim haq... – Shohrux mirzoning ko'zlaridagi nur so'nganday bo'ldi. Gavharshodbegimning qo'llarini tutib turgan barmoqlari ham bo'shashdi. – Lek mensiz, yolg'iz sizga qiyin bo'ladur, Gavharim...*

*Gavharshodbegimning **yuragi bir qalqib tushdi**. (Sh.Isaxonova, "Gavharshodbegim")*

Kontekstdagi **yuragi bir qalqib tushdi** iborasi Shohrux mirzo faqat ilk kelinlik davrida shunday chaqirganligi yodiga tushib, malikaning qalbidagi shirin xotiralar uni hayajonga solganligini qisqa va lo'nda, obrazli tarzda ifodalashga xizmat qilgan.

*– Mahdi ulyo malikam... – **nafasi ichiga tushib ketgan** me'mor Sheroziy yelkalarini qisdi.*

*– E, e, e... as... salomu alay...kum! – qiz kirib ketgan xonaqohdan chiqqan Boysung'ur mirzoning aft-angoriga ko'zi tushgan malikaning **yuragi orqasiga tortib ketdi**. Shahzoda oyoqda bazo'r turar, so'zlarni qiynalib gapirayotganligidan lablari qiyshayib ketardi. (Sh.Isaxonova, "Gavharshodbegim")*

Boysung'ur mirzoning qurilish maydonida kanizak bilan quvalashib yurgani ustiga mahdi ulyoning kelib qolishi me'morni ham noqulay ahvolga solib qo'yadi, bundan o'ta xijolat bo'lgan va hayajonlangan holati **nafasi ichiga tushib ketgan** iborasi orqali ifodalangan. Shaxzodaning o'zini bu taxlit tutishi esa Gavharshodbegimga ham qattiq ta'sir qiladi, uning holatidan chuqur iztirobga tushadi. Malikaning voqelikka nisbatan ichki ruhiy munosabati **yuragi orqasiga tortib ketdi** iborasida obrazli tasvirlanib, eksressivlikni ta'minlagan.

*"Yog' ichida yayramag'an (1) xom sut emg'an banda (2)... – chiqarkan g'udrandi eshik og'asi, shuncha dovu daska, davru davron, toju taxt! Baribir*

*noshukur! Agar halig'i xabar rost chiqsa, ana unda ko'radur tomoshani (3)! "Sichqonning ini ming tanga" (4) deganlaridek, "noib"lig'i ham halvo bo'lib qoladur (5)". (Sh.Isaxonova, "Bibixonim")*

Tilimizda **yog'** (*moy*) so'zi bilan bog'liq *yog'i chiqmaydi* (natija bo'lmaydi), *yog' tushsa yalaguday* (toza), *ilonning yog'ini yalagan* (ayyor), *ko'zini yog' bosgan* (kibrlangan), *ko'zining yog'ini yemoq* (foydalanmoq), *og'zingga yog'* (hozirgi zamonaviy varianti – *tilingga shakar*), *o'z yog'iga o'zi qovurilmoq* (ruhiy iztirob), *yog'day yoqmoq* (juda ma'qul bo'lmoq)<sup>2</sup> kabi qator iboralarning mavjudligi uning kundalik turmushda doimiy qo'llanadigan mahsulot ekanligi, hayotiyliigi bilan xarakterlanadi. Ana shunday til birliklari qatorida *yog' ichida yayramagan* iborasi hamda *yog' ichida yayramagan qora buyrak* matali mavjud. Biroq, negadir, "O'zbek tilining izohli lug'ati"<sup>3</sup> da ham, "O'zbek tilining paremiologik lug'ati"<sup>4</sup> da ham, "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"<sup>5</sup> da ham bu turg'un birikmalar berilmagan. Faqat [ziyouz.uz](http://ziyouz.uz) saytidagina *yog' ichida yayramagan qora buyrak* matalini uchratdik. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, hali xalq jonli tilida adabiy tilga ko'chmagan, lug'atlarga kiritilmagan so'z boyligimiz ko'p.

**Xom sut emgan banda** – har kim ham xato qilishi mumkin, degan ma'no bildiruvchi ibora. (O'TIL, 5-jild, 37-b.)

**Tomosha.** 3. Kishi e'tiborini tortadigan mashmasha, janjalli holat; hangoma. (O'TIL, 4-jild, 143-b.) "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bunday ma'no faqat *tomosha* so'zining o'ziga nisbatan izohlangan. Bizningcha, bu ma'no **tomosha(si)ni ko'rmoq** iborasi orqali ifodalanadi va izohli lug'atda ham bu holat hisobga olinishi kerak edi.

**Halvo (holva)** – arabcha shirinlik, qandolat mahsuloti. "*Halvo*" degan bilan *og'iz chuchimaydi. Sabr qilsang, g'o'radan halvo bitar. Bu (hali) halvo.* Hali hech gap emas, chidasa bo'ladi. (O'TIL, 5-jild, 491-b.)

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. T.: O'zME, 2006-2008.

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. T.: O'zME, 2006-2008.

<sup>4</sup> Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati.

<sup>5</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T.: O'qituvchi, 1978.

**Sichqonning ini ming tanga.** Qochishga joy topa olmay qolingan paytda aytiladigan ibora. (O'TIL, 3-jild, 529-b.)

Tilshunos Orif Tolib ham bu birikmani ibora sifatida tavsiflaydi: "Bu ibora kishi qochishga joy topa olmay qolgan paytni ifodalaydi. Yashirinishga joy-imkon topolmayotgan odam noilojlikdan hatto sichqonning inini ming tangaga olishga tayyor. Sichqonning ini odam uchun o'ta kichik, unga sig'ish, kirib yashirib olish mutlaqo imkonsiz. Aqli joyida kishiga buni uqtirish o'zi aqlsizlik. Lekin yuragi taka-puka bo'lib turgan kishining qo'rquvi shu darajadagi, sichqonning inidan ham umid qiladi."<sup>6</sup> Demak, bu iborada muayyan bir ijtimoiy-psixologik holat ifodalanadi.

O'zining xatolari tufayli jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini yo'qotgan Mironshoh mirzoning tushkun va parishon holatining boshqa bir personaj nutqi orqali tavsifi berilgan o'rindagi to'rt jumlada bir-biriga mazmunan assotsiativ bog'langan beshta iboraning qo'llanishi Sh.Isaxonovanning o'ziga xos ifoda yo'sini shakllangan ijodkor ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, yozuvchi Sh.Isaxonovanning individual uslubida xalq tili xazinasiga mansub somatik va maishiy xarakterdagi iboralarni muayyan ruhiy vaziyatga mos ravishda to'g'ri tanlay bilish mahorati yuqori darajada namoyon bo'lgan. Bunday iboralar voqelikning ifodalanishini tabiiylashtirib, asarning badiiy-ekspressiv ta'sirchanligini oshirgan. Inson ruhiy olamining nozik qirralarini iboralar vositasida badiiy tahlil qilish yozuvchining til boyligidan foydalanish mahoratini ko'rsatish bilan birga, o'zbek tili frazeologiyasining inson ruhiyatini (tafakkur, his-tuyg'u, sezgi) aks ettirishdagi imkoniyatlari naqadar kengligini isbotlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Yo'ldoshev B. B. Frzeologik uslubiyati asoslari. –Samarqand, 1999.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. T.: O'zME, 2006-2008.

<sup>6</sup> <https://daryo.uz/k/2023/06/28/tilimizni-bilamizmi>  
<https://scientific-jl.com/>

3. Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. – Toshkent, 1984.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T.: O'qituvchi, 1978.
5. <https://daryo.uz/k/2023/06/28/tilimizni-bilamizmi>